



QURILISH NIZOLARIDA XALQARO ARBITRAJ

Annotatsiya:

Ushbu maqolada arbitrajning qurilish nizolaridagi o'rni, uning ahamiyati, afzalliklari, amaliyotda uchraydigan muammolar va qurilish nizolaridagi arbitrajning xalqaro darajadagi amaliyoti haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar:

arbitraj, arbitr, huquqiy va ijtimoiy munosabatlar, investitsion muhit, xalqaro tajriba, FAA (Federal arbitration act), ICC (International chamber of commerce), Technology and Construction Solicitors' Association (TeCSA), Dispute Adjudication Boards (DABs).

Information about the authors

*Shodiyev Otobek
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro biznes huquqi fakulteti magistranti*

*Masadikov Sherzod xammuallifligida
Ushbu Universitetning Kafedra Mudiri*

Kirish. Qurilish sohasi uzoq tarixdan buyon global darajada muhim ahamiyatga ega yirik sohalardan biri hisoblanadi. Unda ko'plab tomonlar o'zaro turli xil ijtimoiy munosabatlarga kirishadilar. Bu soha fuqarolik huquqining ko'plab mayda qismlaridan tortib mehnat huquqida mavjud normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan shaxslarni o'z ichiga qamrab oladi. Tabiiyki bu jarayonda taraflar o'rtasida turli xil nizolar paydo bo'ladi. Bunday nizolar turli xil sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, taraflardan (pudratchi, yordamchi pudratchi, buyurtmachi) birining shartnomada belgilangan o'z vazifalarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligini olishimiz mumkin. Bunday shartlarni bajarmaslik o'z navbatida bir necha xil muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni hal qilishning hozirgi kunda bir necha xil usullari masalan, sud, hakamlik sudi, mediatsiya, arbitraj kabi mavjud hisoblanib taraflar o'zaro tuzilgan shartnomada buni belgilab o'tishlari tabiiy hol. Biroq qurilish nizolari o'ziga xos murakkabliklardan iborat bo'lganligi bois ularni an'anaviy tarzda milliy yoki xalqaro sudlarda ko'rib chiqish taraflar uchun bir qancha noqulayliklar olib kelishi mumkin. Masalan, milliy sudlarda qurilish nizolarini hal qilishda quyidagicha;

1. Xalqaro masalalarda tajribaning yetishmasligi, ba'zi milliy sudlar xalqaro qurilish nizolariga oid yetarli tajribaga ega bo'lmasligi mumkin. Bu, ayniqlsa, mamlakat xalqaro tijorat yoki investitsiya nizolari bilan ko'p shug'ullanmaydigan davlatlarda ko'p uchraydi.
2. Biroz vaqt talab qilishi va ortiqcha xarajatlar: Milliy sudlarda ko'rib chiqish odatda ko'p vaqt oladi va xarajatli bo'ladi, chunki ko'pincha uzun muddatli protseduralar mavjud. Bu taraflarga moliyaviy bosim yuklaydi.
3. Boshqa yurisdiksialarda qarorlarni ijro etish qiyinligi: Milliy sudning qarorini boshqa davlatlarda ijro etish qiyin bo'lishi mumkin. Aksariyat davlatlar xalqaro arbitraj qarorlariga qaraganda, milliy sud qarorlarini tan olish va ijro etishga ehtiyyotkorlik bilan yondashadi.

4. Taraflarning betaraflikka bo‘lgan ishonchi pastligi: Ayrim holatlarda, milliy sudlar o‘z davlatlarining manfaatlarini himoya qilishi mumkinligi uchun chet ellik taraflar adolatli qaror chiqarilishiga shubha bilan qarashlari bo‘lsa, xalqaro sudlarda esa quyidagicha muammolar kuzatilishi mumkin:
 1. Yuqori xarajatlar: Xalqaro sudlarda ishni ko‘rib chiqish katta moliyaviy xarajatlarga olib kelishi mumkin. Yuristlar va ekspertlar yollash, sud xarajatlari va protsessual harajatlar odatda yuqori bo‘ladi.
 2. Jarayonning murakkabligi va vaqt talabliligi: Xalqaro sudlarda jarayon ko‘p bosqichli va ancha vaqt talab qilishi mumkin. Sudga tayyorgarlik, hujjatlar almashinuvi va tinglovlar ancha murakkab bo‘ladi.
 3. Sud qarorlarini ijro etishdagi muammolar: Ayrim davlatlar xalqaro sud qarorlarini tan olish va ijro etishga tayyor emas yoki buni amalga oshirishda turli xil to‘siqlar mavjud. Shu sababli, xalqaro sud qarorlarini ijro etish ba‘zi mamlakatlarda qiyin bo‘lishi mumkin.

Shu kabi muammolarning o‘zi shundoq ham murakkab jarayon bo‘lgan qurilish nizolarida xalqaro arbitrajga murojaat qilish yaxshi yechim bo‘lishi mumkin.

Arbitrajning qurilish nizolaridagi o‘rni, ahamiyati va afzallikkleri.

Qurilish nizolarida xalqaro arbitraj quyidagilarni taklif qilishi mumkin;¹

1. Moslashuvchan jarayon: Arbitrajda taraflar protseduralar, joy, va til kabi elementlarni o‘zaro kelishib tanlashlari mumkin. Bu taraflarning qulay sharoitlarda ish olib borishini ta’minlaydi va madaniy yoki huquqiy farqlarga moslashishni osonlashtiradi.
2. Tezkor qarorlar: Arbitraj milliy sudlardan farqli o‘laroq, odatda qisqa muddatda hal qilinadi. Bu esa taraflarga vaqt va resurslarni tejashga imkon beradi.
3. Betaraflik va xalqaro ishonch. Arbitrajda taraflar o‘zaro kelishilgan holda hakamlarni tanlaydilar, bu esa qaror chiqarish jarayonini betaraf va adolatli qiladi. Shu sababli, taraflar arbitraj jarayonida adolatli qaror chiqishiga ko‘proq ishonch hosil qiladilar.
4. Xalqaro ishonch va obro‘: Xalqaro arbitraj institutsiyalari, masalan, Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) va London Xalqaro Arbitraj Sudi (LCIA) xalqaro hamjamiyatda yuqori obro‘ga ega. Bu institutlar taraflarga shaffof va ishonchli jarayonni taqdim etadi.
5. Maxfiylikning ta’milanishi: Arbitraj jarayonlari odatda yopiq o‘tkaziladi va faqat taraflarga ma’lum bo‘ladi. Bu esa biznes sirlarini va moliyaviy ma’lumotlarni himoya qilish imkonini beradi. Ko‘pgina kompaniyalar ushbu maxfiylik tufayli arbitraj yo‘lini tanlaydi.
6. Ijro etishning qulayligi: Xalqaro arbitraj qarorlarini ijro etish ko‘pincha osonroq. Buning sababi Nyu-york konvensiyasi hisoblanib, unga ko‘plab davlatlar qo‘shilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu konvensiya asosida 16.02.2021 yilda “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida” gi qonunni qabul qilgan. Shu sababli, arbitraj qarorlarini boshqa mamlakatlarda ijro etish milliy sud qarorlariga qaraganda qulayroq.
7. Mutaxassis hakamlar. Soha mutaxassislarining jalb qilinishi: Qurilish nizolarida texnik va huquqiy bilim talab etiladi. Arbitraj jarayonida taraflar ushbu sohada tajribaga ega mutaxassis hakamlarni tanlashlari mumkin. Bu esa nizo murakkabligi yoki texnik jihatlarini to‘g‘ri anglashga yordam beradi va sifatli qaror chiqarilishiga xizmat qiladi.
8. Milliy sud tizimiga bog‘liq bo‘lmasslik. Milliy sudlardan mustaqillik: Arbitraj taraflarga milliy

¹ Particularities of construction industry disputes. First chapter. Page 7-8.



sud tizimidan mustaqil ravishda nizolarni hal qilish imkonini beradi. Bu milliy qonunchilikdagi farqlarga bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etib, xalqaro standartlarga asoslangan qaror chiqarishni ta'minlaydi.

Shular sababli ham bugungi kunda **statistik ma'lumotlarga** asosan, Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) Xalqaro Arbitraj Sudi yetakchi arbitrajinstituti bo'lib qolmoqda va uning so'nggi hisobotiga ko'ra, ish hajmi va global ta'sir nuqtai nazaridan kuchli natijalarga erishgan.

2023-yildagi ish faoliyati bo'yicha hisobotga (28 sahifa, PDF/892 KB) ko'ra, 141 mamlakat va hududdan kelgan tomonlar ICC sudiga jami 890 ta yangi arbitraj ishi kiritgan.²

ICC ishlari keng turdag'i sohalarni qamrab oladi va ular 20 dan ortiq toifalarga bo'lingan bo'lsa-da, qurilish va energetika sanoatlari 2023-yilda eng ko'p ishlar bilan ajralib turdi. Ushbu ikki sektor birgalikda barcha yangi ro'yxatga olingan ishlarning taxminan 45% ini tashkil qildi, ya'nii mos ravishda 219 (25,2%) va 179 (20,6%) yangi ishlarni tashkil qildi. Bu avvalgi yillarga mos keladi, chunki 2022-yilda qurilish va energetika sohalari yangi ishlarning 45% ini va 2021-yilda esa 44% ini tashkil qilgan.

Albatta arbitrajning ham o'ziga xos **murakkabliklari** mavjud bo'lib, ularquyidagilar bilan izohlanishi mumkin:³

1. Xarajatlar: xalqaro arbitraj qimmatga tushishi mumkin, ayniqla murakkab nizolar uzoq tinglovlar va ekspert guvohlarning ishtirotini talab qilsa.
2. Vaqt: sud jarayonidan tezroq bo'lsa-da, xalqaro arbitrajni yakunlash baribir vaqt talab qilishi mumkin. Bu nizo murakkabligiga va tanlangan institutning protseduralariga bog'liq.
3. Appelyatsiya cheklanganligi: arbitraj qarorlari ustidan appelyatsiya qilish imkoniyati odadda cheklangan bo'lib, qarorni rad etish uchunasoslar kam.

Qurilish nizolarida xalqaro arbitraj xorij tajribasida. Buyuk Britaniyada Arbitraj.

Buyuk Britaniyada arbitraj bo'yicha uzoq tarixga ega bo'lib, bu sohada rivojlangan huquqiy asos va institutlar mavjud. Angliya va Uelsda arbitrajni 1996-yilgi Arbitraj to'g'risidagi qonun tartibga soladi. Mashhur arbitraj institutlariga LCIA (London Xalqaro Arbitraj Sudi), Chartered Institute of Arbitrators (CIArb), va Technology and ConstructionSolicitors' Association (TeCSA) kiradi.

Buyuk Britaniyada Qurilish Arbitrajining Asosiy Xususiyatlari:⁴

1. Nizolarni ko'rib chiqish Kengashlari (Dispute Adjudication Boards (DABs)): Buyuk Britaniyada qurilish shartnomalarida keng qo'llaniladigan, nizolarni tezkor, vaqtincha hal qilish uchun mo'ljallangan, majburiy bo'lmagan nizolarni hal qilish usuli.
2. DAB nizoni arbitraj davom etayotgan paytda vaqtinchalik yechim sifatida qisqa muddatda qaror chiqaradi.
3. "TeCSA Model Klozasi": Buyuk Britaniyada qurilish shartnomalarida qo'llaniladigan standart arbitraj klozasi. Ushbukloza arbitraj qoidalari, joy va arbitrajchilar sonini belgilaydi, bu esa arbitraj jarayonini boshlashni osonlashtiradi.
4. Ekspert va guvohlar: Qurilish arbitrajida texnik ekspertlar dalillarni taqdim etishda muhim rol o'ynaydi. Ularning tajribasi arbitrga nizoning texnik jihatlarini tushunishga va asosli qaror qabul qilishga yordam beradi.

² Globalarbitrationnews.com/statistics of the cases in 2023 year

³ Alex Johnson and Paul Kinnmont: International arbitration for construction and engineering disputes

⁴ ICC Comission on arbitration and ADR. Construction industry arbitrations. Recommended tools and techniques.



Xulosa. Arbitraj qurilish nizolarini hal qilish uchun an'anaviy sud jarayoniga nisbatan qimmatli muqobil yo'l hisoblanadi. U betaraf platformani, jarayonni moslash imkonini va nisbatan tez va iqtisodiy samarali yechimlarni taqdim etadi. Xalqaro arbitraj tomonlarga kengroq tanlov imkoniyatlarini taqdim etsa-da, Buyuk Britaniya, AQSh va Arab mamlakatlari kabi milliy tizimlar o'zlarining qurilish nizolariga mo'ljallangan huquqiy asos va institutlarini ishlab chiqqan.

Taqdim etilgan ishlar bo'yicha misollar arbitrajning qurilish nizolariga qanday tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatadi – muddat kechikishi, nuqsonli materiallar, to'lovlar amalga oshirilmagan hollari va muddatuzaytirish talablariga qadar. Biroq, arbitrajni tanlashdan oldin uning afzalliklari va kamchiliklarini sinchiklab o'rganish muhimdir. Qurilish arbitrajida tajribali yuridik maslahatchilar bilan maslahatlashish, jarayonning to'g'ri yuritilishini ta'minlash va aniq nizoga mos yechim usulini tanlash zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Global arbitration rules <https://www.globalarbitrationnews.com/comparative-chart/>
2. Arbitration in Construction Projects: A Global Perspective
3. Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni <https://www.lex.uz/docs/-5294106>
4. Xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Nyu York konvensiyasi https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/conventions/foreign_arbitral_awards
5. The arbitration act 1996 <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1996/23/contents>
6. Global reach and construction disputes feature prominently in ICCarbitrations